Intellektual qobiliyat – to‘g‘rilik nuqtai nazaridan aniq vaziyatlarda intellektual faoliyatning muvafaqqiyatini tavsiflovchi intellekt xususiyati hamda vazifalarni hal etish jarayonida axborotlarni qayta ishlash tezligi, g‘oyalarning originalligi va xilma-xilligi, ta’lim olganlikning yuqori sur’ati va chuqurligi, bilish usullarida individuallikning aks etishidir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizdagi iqtidorli bolalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlangan davlatlar tajribalariga tayangan holda tashkil etish mamlakat taraqqiyotini ta’minlashga mustahkam zamin yaratadi.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07G‘18G‘3907G‘1706-son.

2. Рабочая концепция одеренности / Науч. ред. В.Д.Шадрикова. – М., 2002. – 7-9 с.

3. Psixologiya: Словарь Под общ. ред. А. В. Петровского, М. Г. Ягошенкого. – М., 1990. – 247 с.

4. Войтенко Т. Обучение через саморазвитие и самовоспитание // Директор школы. – М., 2000. №3. – С. 76-86.

TALABALARDA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich, Guliston Davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishning umumiy omillari to‘g‘risida bo‘lib, bunda axborot madaniyatini rivojlantirishning tamoyillari va vazifalari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: media, savodxonlik, media savodxonlik, media ta’lim, axborot texnologiyalari, multimedia, ommaviy axborot vositalari.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. Данная статья посвящена общим факторам развития информационной культуры студентов, обучающихся в системе высшего образования, содержит представления о принципах и задачах развития информационной культуры.

Ключевые слова: медиа, грамотность, медиаграмотность, медиаобразование, информационные технологии, мультимедиа, СМИ.

FACTORS OF DEVELOPMENT OF INFORMATION CULTURE AMONG STUDENTS

Abstract. This article is based on general factors of the development of information culture of students, education and the system of higher education, soderjit predstavleniya o principah i zadachakh razvitiya of information culture..

Keywords: media, literacy, media literacy, media education, information technology, multimedia, media.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda axborotlashtirish va globalizatsiya jarayonlari ta’sirida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’limda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, Internet, global va ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanish yuqori sur’atlarda rivojlanmoqda. Oliy ta’lim muassalarida keng qo‘llanilayotgan elektron ta’lim deganda ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan va ta’lim dasturlarini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan axborot, unga ishlov berishni ta’minlovchi axborot-kommunikatsion texnologiyalari, texnik vositalar, shuningdek, tegishli axborotni aloqa liniyalari

bo‘ylab uzatishni, ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi axborot-telekommunikatsion tarmoqlardan foydalanish orqali tashkil etiladigan ta’lim jarayoni tushuniladi. Mazkur tushuncha bir qator adabiyotlarda “e-learning” (“e-Learning”), “e-education” va boshqa ko‘rinishlarda ham uchraydi. Bu sohaga tegishli atamashunoslikda bir ma’noli yondashuvning yo‘qligi elektron o‘qitish nazariyasining muhim muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

YUNESKO ta’rifiga ko‘ra: e-learning (elektron ta’lim) - Internet va multimedia yordamida o‘rganish. Birinchi marta (professional muhitda) e-learning (elektron ta’lim) atamasi 1999-yil oktyabr oyida Los-Anjelesda CBT Systems seminarida ishlatilgan. YUNESKO elektron ta’lim atamasi va konsepsiyasi o‘rniga milliy tillarga tarjimadan foydalanishni tavsiya etmaydi, chunki bu atama juda o‘ziga xos tarkibga ega va u har doim ham tarjima orqali etarli darajada uzatilmaydi.

Mazkur masala bo‘yicha har tomonlama umumlashgan nuqtayi nazar Katalon universiteti olim-tadqiqotchilari jamoasi tomonidan ilgari surgan. Ular elektron ta’lim mohiyatini tushunish borasida quyidagi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatishgan:

elektron ta’lim berishni axborotli kommunikatsiyaga mo‘ljallarini olish nazaridan – ta’limning muloqotlarini zamonaviy kommunikatsion vositalari orqali amalga oshirishdan iborat;

elektron o‘qitishda ta’limning paradigmalari orqali ta’limiy jarayonlarga innovatsiyani ta’sirli yondashuvlarini amalga oshirishdan iborat. Bunday yondashuvlar xar-xil raqamli texnologiyalarni resursidan foydalanib ta’lim yo‘nalishiga ega interfaol ochiq muhitni yaratishni ko‘zda tutadi.

Jahon miqyosida globallashuv jarayoni, texnik taraqqiyot, turli millat, elatlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalar bo‘yicha yaqin hamkorligi, birlashishi ro‘y bermoqda. Ana shu sabablar ham, Vatanimizning dunyo hamjamiyatida taraqqiyparvar davlat sifatida tanilib, o‘z mavqei va o‘rniga ega bo‘lishi ham ayniqsa, istiqbolimiz egalari-yoshlarimizdan xorijiy tillarni mukammal bilishini taqozo etadi.

Ta’limning o‘rni – bilim, qadriyat va madaniy me’yorlarni yoshlarga uzatishni ta’minlashdagi bu hol ta’limda axborot texnologiyalarini axborot almashish, qayta ishlash va uzatish vositasi sifatida harakat qiladi. Axborot va axborot jarayonlari ijtimoiy hamkorlikning eng muhim tarkibiy qismlari bo‘lib, ular asosida taraqqiy etadigan jamiyat quriladi.

Axborotlashtirish jarayoni zamonaviy inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga, jumladan, oliy ta’limga ham ta’sir ko‘rsatdi. Axborotlashtirish sharoitida zamonaviy fuqarolik jamiyat a’zolarini o‘qitish zarurligi, ham davlat, ham xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda.

Shunday qilib, 2018-yilda O‘zbekiston hukumati tomonidan "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi dastur ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Bu dasturda insonning, o‘quv faoliyati ham qamrab olingan bo‘lib, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni qo‘llab samaradorlikka erishish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va takomillashtirish, raqamli jamiyatda xavfsiz axborot muhitini ta’minlash kabi masalalar qaralgan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotining ustuvor vazifalari: fan va ta’lim sohasida raqamli xizmatlarni rivojlantirish; ilmiy-tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish; yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash; ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirish; bilingval elektron ta’lim muhiti asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish kabilardir.

Dinamik rivojlanayotgan axborot maydonida faoliyat yuritadigan zamonaviy mutaxassis kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari yordamida axborotni to‘plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bir tomondan, katta miqdordagi axborotlarga tezkor kirish imkonini beruvchi global tarmoqning doimiy rivojlanishi atrof olam haqida kerakli ma’lumotlar olishni osonlashtiradi. Ammo, boshqa tomondan, axborotni ya’ni, muhim, ishonchli, dolzarb va zaruriy ma’lumotlarni topish yanada murakkablashib borayotganligini ham e’tiborga olish zarur. Axborot oqimida erkin harakatlana olish uchun inson yoshlikdan boshlab shakllanish lozim bo‘lgan axborot madaniyatiga ega bo‘lishi kerak.

“Kompyuter savodxonligi”, “axborot savodxonligi va axborot madaniyati” tushunchalarining ta’riflarini qiyosiy tahlil qilamiz. Yuqoridagi tushunchalarning har birida insonning axborot bilan o‘zaro ta’sirining murakkab hodisasi tasvirlanadi. Bu tushunchalar doirasiga bir qancha komponentlar kiradi: axborotni qidirish, topilgan axborot manbalarini tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyati, o‘quv, kasbiy yoki boshqa faoliyatda yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilish uchun ulardan ijodiy foydalanishdir.

Media va axborot savodxonligi konsepsiyasi umuminsoniy huquqlarga asoslanadi hamda ayrim shaxslar, jamoalar va butun millatlar so‘z erkinligi huquqi va axborotdan foydalanish erkinligi huquqidan foydalanishining asosiy sharti deb hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida qayd etilishicha, “Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to‘siqsiz o‘z e’tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat’i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi”.

YUNESKOning media va axborot savodxonligi to‘g‘risidagi nashrlarida ta’kidlanadiki, “media va axborot savodxonligini o‘zlashtirgan fuqarolar:

1) tegishli texnologiyalardan foydalangan holda axborot va mediakontentni olish, baholash, yaratish va tarqatish layoqatiga ega bo‘ladi”. Bu odamlar:

2) o‘zlarining axborot va OAV bilan ishlash sohasidagi huquqlarini, shuningdek, o‘z ixtiyoriga bepul, mustaqil va turli-tuman axborot va mediatizimlar berilishi bo‘yicha talab uchun o‘z mas’uliyatini tushunadi va biladi. Media bilan munosabatda ular:

3) axborot va media ta’minotchilari roli va funksiyasini, shuningdek, ushbu funksiyalarning amalga oshirilishi shartlarini tushunadi. Bu hali hammasi emas, o‘zaro axborot almashishning faol ishtirokchisi bo‘lgani holda, ular:

4) bilim yaratishga va ularni keng ko‘lamda tarqatishga qodir.

Ilmiy va texnologik taraqqiyot konsepsiyasi “axborot madaniyati” tushunchaning keng ma’noda o‘rganishga olib keldi. Bu atama informatika,

kibernetika, axborot nazariyasi, semiotika va hokazolardan foydalanib, ta’limda axborot bilan ishlashning yangicha yondoshuvi va tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradigan fanlar bilimlarini o‘zlashtirdi.

Axborot madaniyati xabarlarni saralash, ularning ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e’tibor qaratib munosabat bildirish, g‘oyaviy asoslarini aniqlash, xabar manbaini topishda namoyon bo‘ladi. Axborot madaniyatining bir qator vazifalari mavjud. Ular:

bilish vazifasi (axborot iste’molchila rining faoliyatini ta’minlash uchun tarixiy vorisiylikni saqlashga qaratilgan bilimlarni yetkazadi);

tartibga solish vazifasi (real ideallar yordamida ijtimoiy, siyosiy, huquqiy me’yorlarning amalda ifodalanishini ta’minlaydi);

tarbiyaviy vazifasi (shaxsning intellektual rivojiga yordam berib, ijtimo iy, siyosiy, huquqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirishga, qiziqishning yuzaga kelishiga, faoliyat uchun ma’lum ustanovka (yo‘l-yo‘riq)larni tarkib toptirishga ko‘maklashadi);

mafkuraviy vazifasi (dunyoning ijti moiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid ma’ lumotlarni biron-bir g‘oya manfaati asosida etkazadi);

xabar berish vazifasi (sub’ektlarga dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisa hamda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar haqida ma’lumot etkazadi);

tashxis qo‘yish vazifasi (joriy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy voqeliklarni baholaydi);

prognostik vazifasi (ijtimoiy, iqtiso diy va siyosiy jarayonlarning yo‘nalishini oldindan belgilash, ularning yuzaga kelishi, kechish bosqichlariga oid ehtimoliy ma’lumot taqdim etadi) va boshqalar.

Vaqt o‘tishi bilan madaniyatshunos olimlar axborot madaniyatini shaxs va turli ijtimoiy guruhlar madaniyatining tarkibiy qismi deb hisoblay boshladilar. Shunday qilib, “shaxsning ta’limda axborot madaniyati” tushunchasi paydo bo‘ldi.

“Axborot savodxonligi” deganda, mutaxassisning kerakli axborotni tushunishi, izlab topishi hamda kasbiy faoliyatda ularni qo‘llashi mumkin bo‘lgan malakaga ega bo‘lishi tushuniladi. Birinchidan, “axborot savodxonligi” tushunchasi axborot bilan ishlashning texnologik tomonini qamrab olgan, ikkinchidan, ta’lim dasturi asosida uni shakllantirish maqsadli amalga oshirilgan. Shuning uchun “axborot savodxonligi” tushunchasi qisman kompyuterda ishlash savodxonligini ham o‘z ichiga oladi.

“Axborot madaniyati” tushunchasi quyidagi mazmunlarni o‘zida mujassam etadi:

inson bilim egallashning zamonaviy vositalari, qayta ishlash va tizimlashtirish malakasiga ega bo‘lishini;

tabiat va jamiyatda kechayotgan axboriy jarayonlarning mohiyatini tushunishni; faoliyat sohasiga oid xususiyatlari hamda turli manbalar bilan ishlashni bilish, axborotni tahliliy, sintetik qayta ishlash asoslarini o‘rganishni va boshqalar.

Shaxsning axborot madaniyati aynan ma’lumotlardan foydalanish nuqtasida shakllanadi, shaxs shakllanishi darajasida bu vazifani kutubxona bajaradi va aynan

shu o‘rinda axborot savodxonligi va mediasavodxonlikni shakllantirish faoliyatiga yo‘l ochish kerak. Bu erda bugungi kunda ushbu ikkita tushuncha birlashib ketgan.

Media va axborot savodxonligi tushunchasining yana bir muhim qismi - bu axborot madaniyatidir. Uni inson umumiy madaniyatining bir qismi, “an’anaviy va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda axborotga bo‘lgan ehtiyojlarni muvofiq qondirish bo‘yicha maqsadli va mustaqil faoliyatni ta’minlovchi dunyoqarash hamda bilim va hunarlar tizimining yig‘indisi” deya tavsiflash mumkin. Bunga media sohasidagi moddiy va intellektual qadriyatlarning yig‘indisi - mediamadaniyat chambarchas bog‘liqdir.

A. S. Karmin ta’kidlaydiki, “Jamiyat ma’naviy madaniyatga e’tibor bermay, texnologik madaniyat darajasini ko‘tarsa, ma’naviy qadriyatlarni unutish xavfi tug‘iladi, demak, zamonaviy axborot madaniyati shaxs umumiy madaniyatining bir qismi bo‘lib, axborot jamiyati va ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. U batafsil tahlil va har tomonlama o‘rganishni talab qiladi”.

Ta’limda axborot madaniyati tushunchasi shaxsning axborot faoliyatini muayyan madaniy muhit doirasida ko‘rib chiqish imkonini beradi, shu bilan insonning axborot sohasidagi olingan bilimlarni tabiiy muhitda qo‘llash imkoniyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni yuzaga keltiradi. Tadqiqotchi olim R. Samarov fikriga ko‘ra “Axborot madaniyati tushuncha sifatida nafaqat mutaxassisni tayyorlash jarayonida, balki kasbiy tarbiya tizimida ham muhim omil va umumiy madaniyatning tarkibiy qismi“ deb hisoblanadi. Axborot madaniyati axborot bilan maqsadli ishlash, axborotni rasmiy qo‘lga kiritish, uni ilmiy uslublar yordamida qayta ishlash, o‘z vaqtida uzatish, zamonaviy vositalar hamda usullarni qo‘llay olish malakasi va ko‘nikmasiga ega bo‘lishdir.

Media savodxonlik ma’lumotlar, axborot va bilimlarni yaratish, saqlash, uzatish va taqdim etishni ta’minlaydigan turli formatlardagi ma’lumotlar bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmuini nazarda tutadi.

Media va axborot savodxonligi 2007-yilda UNESCO tomonidan taklif etilgan keng qamrovli tushunchadir. U axborot savodxonligi va mediasavodxonlik bilan bog‘liq barcha kompetensiyalarni, shu jumladan raqamli yoki texnologik savodxonlikni ham qamrab oladi.

Media va axborot savodxonligi – bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir.

Internet savodxonligi – ta’limda axborot savodxonligining muhim elementi. Internet savodxonligi lokal va global tarmoq, xususan, uning qurilma darajasida (ulanish masalalari) va dasturiy ta’minot darajasida tashkil etilishi (veb-sahifalarni ko‘rish va yaratish, qidiruv tizimlari bilan ishlash uchun maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanish) haqidagi bilimlar majmui sifatida talqin etiladi.

Bu tuzilma asosida kompyuter savodxonligi butun tizimning o‘zagi ekanligini, faqat ta’limda kompyuter savodxonligi asosida axborot savodxonligi va madaniyati shakllanganligini tushunishimiz mumkin. Kompyuter savodxonligi ko‘p jihatdan kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash usullarining (masalan,

kompyuterlar) o‘ziga xos namunalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, axborot savodxonligi esa, kelib chiqishidan qat’iy nazar, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Xuddi shuning uchun ham axborot savodxonligi, media savodxonlik va Internet savodxonligi kabi yordamchi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Inson va axborotning o‘zaro ta’sirini tavsiflovchi juda keng va atroflicha tushuncha axborot madaniyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev B. B. Intelligent systems and their development technology. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 10. Issue 4. April. 2022. – P. 109-114.
2. Abdullayev B. B. Intellektual tizimlarning ta’lim jarayonidagi roli. O‘zMU xabarlari. 2021. 1/6/1-son ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi. – B. 31-34.
3. Abdullayev B. B. Ta’lim jarayonida intellektual tizimlar va ularni ishlab chiqish texnologiyasi O‘zMU xabarlari. 2022. 1/4/1-son ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi. – B. 34-37.
4. Кузнетсова М. А. Формирование информационноу культуры у студентов вуза в рротсессе обучениуа: дис. ... канд. ред. Наук: 13.00.08 / [Чуваш. гос. ред. ун-т им. И. УА. Уаковлева].- Чебоксары, 2009. – 250 s.
5. Кармин А. С. Философиуа культуры в информационном обществе: рроблемы и рерсрективы. Текст. / А. С. Кармин // Ворросы философии.- 2006. - № 2.- С. 61.
6. Mamarajabov M. E., Abdullayev B. B. To develop students’ skills and abilities to use intelligent systems in e-learning environment. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 10. Issue 6. June. 2022. – P. 528-533.
7. Muratova N. Jurnalistikada media va axborot savodxonligi. – Toshkent: Baktria press, 2019. – 112 b.
8. Samarov R., Sattorov Yo. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning nazariy-amaliyahamiyati. Zamonaviy ta’lim/ sovremennoe obrazovanie jurnali. 2014. 1-son.
9. https://www.techrepublic.com/article/10-things-you-have-to-know-to-be-computer-literate/

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI KREATIV FIKRLASH QOBILYATLARINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi, Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini innovatsion yondashuvlar asosida kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish,ta’lim jarayoniga o‘quvchilarni yangiliklar orqali qiziqtirish, ularning dunyoqarashlarini rang-barangligini boyitish hamda ularda yaratuvchanlik, ijodkorlik, ixtirolar qilishga ishtiyoqini oshirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: dunyoqarashning rang-barangligi, innovatsion yondashuvlar, kreativlik, kreativ fikrlash, yaratuvchanlik, ijodkorlik, ishtiyoq.

ФОРМИРОВАНИЕ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НАВЫКОВ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование способностей творческого мышления учащихся начальных классов на основе новаторских подходов, интерес учащихся к образовательному процессу через новости, обогащение разнообразия их мировоззрения, повышение их увлеченности творчеством, творчеством, изобретательством.

Ключевые слова: многообразие мировоззрения, инновационные подходы, креативность, творческое мышление, креативность, креативность, увлеченность.

FORMATION OF CREATIVE THINKING SKILLS IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN BASED ON INNOVATIVE APPROACHES

Abstract. This article discusses the formation of creative thinking abilities of elementary school students based on innovative approaches, interest of students in the educational process through news, enriching the diversity of their worldviews, and increasing their enthusiasm for creativity, creativity, and inventions.

Keywords: diversity of outlook, innovative approaches, creativity, creative thinking, creativity, creativity, passion.

Kirish. YUNESKO tashkiloti pedagogik texnologiyani ta’lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda, o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish,

qo‘llash vaaniqlashning tizimiy uslubi ekanligini be’jiz ta’kidlamagan. Bundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyaning tub mohiyati o‘quv jarayoniga tizimli yondashishdan iborat ekanligi bilinadi. Ma’lum bo‘ladiki, pedagogik texnologiyaning eng tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladigan asosiy mezon bu - nuqsonsiz mexnat kontseptsiyasi ekan. Nuqsonsiz mexnatni ta’minlovchi shartlardan biri mehnat qilayotgan subektning psixologik shaxsiy xarakteristikalarini hisobga olishdir. Samarali pedagogik mehnatning eng muhim omillari sifatida - izlanuvchining kasbga qiziqishi; - kasbiy tayyorgarlik sifati; o‘z mehnatini muntazam nazorat qilib borish kabi holatlarni olishimiz mumkin. Samaradorli pedagogik mehnat - zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda mavjud bo‘ladi va ma’lum o‘qitish standartlariga erishishini kafolatlaydi, natija bo‘yicha samarador, xarajatlar bo‘yicha optimal bo‘ladi. Ta’lim jarayonida innovatsiyalarni qo‘llashda eng yuqori natijani olish vazifasi tushiniladi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ilmiy adabiyotlarda boshlang‘ich sinflarda innovatsion yondashuvlar alohida e’tibor qaratiladi. Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiyalarni keltirib chiqaradi.

Ma’lumki, ta’lim tizimidagi pedagogik jarayonning mohiyati – o‘qituvchi hamda o‘quvchining o‘zaro munosabatdagi faoliyati nazarda tutiladi, ushbu jarayonda pedagog o‘quvchiga yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi, shu bilan birga, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalandi. Pedagog axborotlarni e’lon qilish, krsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo‘naltirish, haqqoniylashtirish, kengashish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘rinishlarda yordam beradi. O‘qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish kontseptsiyasigaasoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketmaketligini asoslash mumkin: dastlab o‘quv materiali mazmunining tavsifi, uni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad (o‘zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo‘yilish shartlari tahlil etiladi. So‘ngra, o‘qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o‘qitish vositalarining ro‘yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta’lim vositalarining yaxlit tizimi tashkiliy shakllar.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, uzviy bog‘liq) tizim bo‘lib, unda ta’lim maqsadlari asosida belgilangan ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ularda muayyan ma’naviyaxloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma’lum tartibga solingan to‘plami sifatidaaks etadi. Umumlashgan pedagogik texnolgiyalar ma’lum psixo-pedagogik asoslarda qurilgan «sintetik nazariya» sifatida qaraladi. Ta’lim jarayonining maqsadi DTS, o‘quv rejasi dasturi, shuningdek, darslik, qo‘llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fan

(yoki kurs)ning o‘ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishlari, ta’lim beruvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholay hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati va hakozo omillarni inobatga olish asosida belgilanadi.

O‘quv jarayonining maqsadi tashhisli ravishdaaniq va ravshan belgilanmog‘i lozim. Ta’lim maqsadining bunday belgilanishi ma’lum va amal qilingan vaqtda didaktik jarayonni tashkil qilish va amalga oshirilish darajasi yuzasidan xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim jarayonining maqsadi ijtimoiy buyurtma mazmuni hamda o‘quvchi shaxsi modellarining o‘zaro muvofiqligi asosida kechadi. Bosqichli darajada ta’lim maqsadini shakllantirish dolzarb darajadagi maqsad muayyan ta’limiy tayyorgarlik bosqichlari bo‘yicha taqsimlab chiqiladi. Ta’lim tizimining yaxlit holda kasbga yo‘naltirilganligi sababli o‘quvchi shaxsining modeli uning obyekti bo‘lib qoladi. Ta’lim jarayonida shaxsning yosh ko‘rsatgichlari tabiiy uning shakllanish bosqichlariga mos ravishda asosiy maqsaddan kelib chiqib darajalanadi. Tezkor daraja ta’lim maqsadini shakllantirish mazmuni, ta’lim jarayonini tashkil etuvchi alohida fanlarni o‘rganishdan iboratdir.

Ta’lim jarayonining mazmuni shaxsga ta’lim berish, uni tarbiyalash va rivojlantirish kabi vazifalarning ijobiy hal etilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ta’lim muassasalari oldida turgan vazifalarni hal etish mashg‘ulot (ta’lim jarayoni) mazmuni, ta’lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim shakli, metodlari va vositalari o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda chuqur bilim va dunyoqarashni hosil qilishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuv quyidagilarga ega bo‘lishni ifodalaydi: - ijodiy faollik; - faoliyatga yangilik (o‘zgartirish) kiritishga - texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik; - yangicha fikrlash; - yuksak muomala madaniyati Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o‘zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo‘llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda kechadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach Davlat ta’lim standarti hamda o’quv reja va dasturlar asosida boshlang‘ich ta’limda (1-2-sinflarga “atrofimizdagi olam”, 3-4-sinflarga “tabiatshunoslik”) darslik va o’quv qo‘llanmalar yaratildi. Ta’limdagi islohot ta’lim sifatini oshirishga qaratilganlini hisobga olgan holda yangicha turdagi darsliklarning ta’lim jarayoniga joriy qilish orqali ham amalgaoshirilmoqda. Fanlarni umumlashtirish, sifatini oshirish, o’quvchilar ongida yangicha rang-baranglikni hosil qilish maqsadida bir necha fanlar tizimi ixchamlashtirilib ixtisoslashtirildi. Jumladan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan tabiatshunoslik turkumiga kiruvchi fanlar umumlashib “Tabiiy fanlar” turkumi joriy qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

2. G‘oyibnazar Ernazarov. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi Toshkent.: ILM ZIYO, 2013.

3. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Ilm-ziyo, 2010.

4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X. va boshqalar. Ona tili. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.

5. Safarova R., Inoyatova M. Alifbe. – Toshkent: Kolorpak, 2021.

6. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y. va boshqalar. Tabiiy fanlar. 2-sinflar uchun darslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.

7. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o’qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2005.

8. Bahramov A. Tabiatshunoslik. 3-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T.: Cho‘lpon, 2014.

9. Bahramov A. Tabiatshunoslik. 4-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T.: Sharq, 2014.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABA-QIZLARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHDA OILA VA MAHALLA HAMKORLIGI UZVIYLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Soliho‘jayeva Dildora, GulDU Pedagogika-psixologiya kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Maqola talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlash mexanizmlari haqida. Maqolada talabalarni o‘zlashtirishda oila va mahalla bilan hamkorlikni ta’minlashning muhimligi ko‘rsatiladi. Maqolada talabalarning o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatishga yordam beruvchi bir nechta usullar ko‘rsatiladi, masalan, talabalarni mahalliy ijtimoiy tashkilotlar bilan bog'liq qilish, oila va mahalladagi xavfsizlik va barqarorlik haqida o‘rganish, shuningdek, oila va mahalladagi xizmat ko‘rsatishlardan foydalanish kabi ko‘plab usullar ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim muassasalarida, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash, oila va mahalla hamkorligi, uzviyligi, ta’minlash mexanizmlari, talaba qizlar, o‘zlashtirish, rivojlantirish, milliy qadriyatlar, jamiyatlik qadriyatlar, mahalliy ijtimoiy tashkilotlar, o‘zaro aloqalar, mahalliy tadbirlar, ijtimoiy faoliyatlar, intellektual rivojlanish, kasbiy rivojlanish, jismoniy rivojlanish.

МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ СЕМЕЙНОГО И МАХАЛЛИНСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОК К САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ЖИЗНИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В статье речь идет о механизмах обеспечения целостности семейно-соседского сотрудничества в подготовке учащихся к самостоятельной жизни. В статье показано значение обеспечения сотрудничества с семьей и обществом в развитии учащихся. В статье описывается несколько способов оказания помощи в обучении учащихся, таких как подключение учащихся к местным общественным организациям, изучение вопросов безопасности и стабильности семьи и соседей, а также работа с семьей и обществом. Показаны многие методы, такие как использование «шоу».

Ключевые слова: в вузах, подготовка студентов к самостоятельной жизни, семейно-соседское сотрудничество, сплоченность, механизмы обеспечения, студентки, развитие, национальные ценности, общественные ценности, локальные общественные организации, взаимные связи, локальные

события, социальная деятельность, интеллектуальное развитие, профессиональное развитие, физическое развитие.

MECHANISMS FOR ENSURING CONTINUITY OF FAMILY AND MAHALLA COOPERATION IN PREPARING STUDENTS FOR INDEPENDENT LIFE IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. The article is about the mechanisms of ensuring the integrity of family and neighborhood cooperation in preparing students for independent life. The article shows the importance of ensuring cooperation with the family and community in the development of students. The article outlines several ways to help influence student learning, such as connecting students with local community organizations, learning about family and neighborhood safety and stability, and family and community service. Many methods are shown, such as using 'shows'.

Keywords: in higher education institutions, preparing students for independent life, family and neighborhood cooperation, unity, mechanisms of provision, female students, development, national values, community values, local social organizations, mutual connections, local events, social activities, intellectual development, professional development, physical development.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla bilan hamkorligi ta'minlash mexanizmlari quyidagi shakllarda ifodalash mumkin:

1. Oilaviy tarbiya kurslari: Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla bilan hamkorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oilaviy tarbiya kurslari tashkil etilishi mumkin. Bu kurslarda talabalarga oila tarbiyasi, oilaviy munosabatlar, oilaviy munosabatlarni qo‘llash, oilaviy muammo va hal qilish, oilaviy qo‘shiqlar va boshqalar kabi mavzular o‘qitiladi. Bu kurslar talabalarga oila va mahalla bilan hamkorlikni oshirish uchun ko‘proq tushunchalar berib, ularni mustaqil hayotga tayyorlashda yordam berishadi.

2. Mahalliy tashkilotlar bilan ishbirligi: Mahalliy tashkilotlar, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni oila va mahalla bilan hamkorlikni oshirishda o‘zlarining tajribalarini va tushunchalarini taqdim etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tashkilotlardan biridir. Bu tashkilotlar, talabalarni oila va mahalla bilan bog'liq ishlar qilish, ularni oilaviy tarbiya kurslarida qatnashishga qo‘shilish, hamkorlik dasturlarida ishtirok etishga va oilaviy muammolarni hal qilishda yordam berishda hamkorlik qilishadi.

3. O‘quv yurtlari va akademik institutlar bilan ishbirligi: O‘quv yurtlari va akademik institutlar, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla bilan hamkorlikni oshirishda hamkorlik qilish uchun yaxshi manbalardan biridir. Bu institutlar, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda qo‘llanadigan yangi texnologiyalarni yaratishda va ularni oila va mahalla bilan bog'liq ishlar qilishda yordam berishda hamkorlik qilishadi.

4. Oilaviy konsultantlar va maslahatchilar: Oilaviy konsultantlar va maslahatchilar, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni oila va mahalla bilan hamkorlikni oshirishda yordam berishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mutaxassislar. Ular, talabalarni oila va mahalla bilan bog'liq muammolarni hal qilishda va oilaviy munosabatlarni kuchaytirishda yordam berishda hamkorlik qilishadi.

5. Hamkorlik dasturlari: Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni mustaqilhayotga tayyorlashda oila va mahalla bilan hamkorlikni oshirish uchun hamkorlik dasturlari tashkil etish ham muhimdir. Bu dasturlar, mahalliy tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalar va boshqa tashkilotlar orasida birlashishni ta’minlashda, talabalarni oila va mahalla bilan bog'liq ishlar qilishga, oilaviy tarbiya kurslarida qatnashishga qo‘shilishga va oilaviy muammolarni hal qilishda yordam berishda hamkorlik qilishadi.

6. Talabalarga oilaviy ko‘rsatmalarni taqdim etish: Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga oilaviy ko‘rsatmalarni taqdim etish, ularni oila va mahalla bilan hamkorlikni oshirishda ko‘proq tushunchalar berishda yordam berishda hamkorlik qilishadi. Bu ko‘rsatmalar, oilaviy tarbiya, oilaviy munosabatlar, oilaviy muammo va hal qilish, oilaviy qo‘shiqlar va boshqalar kabi mavzularni o‘z ichiga oladi va talabalarga ularning oila va mahalla bilan bog‘liq ishlar qilishda yordam beruvchi ko‘rsatmalar taqdim etiladi.

7. Talabalarni oila va mahalla bilan bog'liq ishlar qilishda mustaqil qilish: Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla bilan hamkorlikni oshirishda talabalarga mustaqil ish qilish imkoniyati taqdim etilishi muhimdir. Bu, talabalarga oilaviy muammolariga o‘zlarining hal qilishida yordam berish, oilaviy munosabatlarni oshirish, va oilaviy tarbiya kurslarida o‘zlarining ishtirok etish orqali o‘zlarini mustaqil hayotga tayyorlashda yordam berishda hamkorlik qilishadi.

Yuqoridagi mexanizmlar, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla bilanhamkorligi ta’minlashda muhim rol o‘ynaydigan usullardan ba’zilaridir. Bu mexanizmlar talabalarning oila va mahalla bilan hamkorlikni oshirishda ko‘rsatiladigan samaradorlikni ko‘proq oshirishga yordam beradi [1].

Bu maqola Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlash mexanizmlari haqida tahlil va metodlar ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim - bu avlodlar tomonidan to‘plangan bilim va madaniy qadriyatlarni saqlash va keyingi avlodga o‘tkazish, yoshlarda tarixiy, ilmiy va madaniy qadriyatlarni saqlash va boyitishga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishni ta’minlash jarayonidir. Shuning uchun ham ta’lim jamiyat taraqqiyotining zaruriy omili sifatida qaraladi. Ta’lim tufayli inson fan va madaniyat olamiga kiradi, u ijtimoiylashuv jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, avlodlar davomiyligini ta’minlaydi. Ta’limni yosh avlod tomonidan madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy-madaniy normalarni o‘zlashtirishga qaratilgan jarayon sifatida qarash mumkin. Shuningdek, ta’limni odamlarning ishonchli tarzda

tasdiqlangan, haqiqatga zid bo‘lgan, lekin jamiyatning yozma va yozilmagan qonunlari va normalari tomonidan majburiy norma sifatida qabul qilingan, haqiqatga zid bo‘lsa ham, haqiqiy ilmiy bilimlarni olish uchun maqsadli kognitiv faoliyati sifatida ta’riflash mumkin [11, 22–24b].

Oliy ta’limda xotin-qizlar ustunligining o‘sishi so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda butun dunyo bo‘ylab kuzatilmoqda. Bir necha o‘n yillar oldin oliy ta’limga o‘qishga kirgan va uni bitirgan ayollarga qaraganda erkaklar ko‘proq bo‘lgan bo‘lsa, so‘nggi o‘n yilliklarda ayollarning ta’lim darajasining ortishi kuzatilmoqda [12]. Bu o‘sish xotin-qizlarga oliy ma’lumot olishda erkaklar bilan ta’lim borasida tenglashish imkon berdi va oliy ma’lumot olishda xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi gender tenglikning kuchayishiga olib keldi [12].

Sotsiologiya nuqtai nazaridan ta’lim o‘ziga xos ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan o‘ziga xos tuzilishga ega, lekin shu bilan birga, ijtimoiy butunning - jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, uning barqarorligi va rivojlanishini funktsional jihatdan ta’minlaydigan ijtimoiy institutdir.

Bu maqolada ko‘rsatilgan tahlil va metodlar davomida, mualliflar oila va mahalla hamkorligining talabalarning mustaqil hayotiga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etishini ta’kidlashadi [2]. Bu tahlil va metodlar o‘rtasida yirik ro‘yxat quyidagilardir:

1. Oila va mahalla hamkorligi ta’lim muassasalarida qanday amalga oshiriladi?
2. Oila va mahalla hamkorligi talabalarning mustaqil hayotga tayyorlashida qanday muhim ahamiyatga ega?
3. Talabalarning oila va mahalla bilan aloqasi qanday ta’minlanishi kerak?
4. Oila va mahalla hamkorligi talabalarni o‘zlashtirishda qanday rol o‘ynaydi?
5. Talabalarning oila va mahalla bilan hamkorlikda qanday qatnashishlari kerak?
6. Oila va mahalla hamkorligi talabalarni shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Metodlar. Bu maqolada ko‘rsatilgan tahlil va metodlar davomida, mualliflar bir qator ilmiy manbalar, hujjatlar va tadqiqotlarni o‘rganish orqali maqolani tayyorlashda foydalanishlari mumkin. Shu bilan birga, mualliflar o‘zlarining shaxsiy tajribalaridan ham foydalanishlari mumkin [3].

Maqola tayyorlash jarayonida mualliflar o‘zlarining fikrlarini, tajribalarini va o‘rganishlari bilan bog'liq bo‘lgan maqolalar va hujjatlarni ham ko‘rib chiqishlari kerak. Bu bilan birga, mualliflar maqolaning tahlil va metodlarini amalga oshirish uchun bir nechta so‘rovnoma, anket va boshqa metodlardan foydalanishlari mumkin. Misol uchun, talabalarning oila va mahalla bilan aloqasini o‘rganish uchun, mualliflar talabalarga so‘rovnoma tayyorlashlari mumkin. Bu so‘rovnoma talabalarning oila, mahalla bilan aloqalarining xususiyatlari, qanday aloqada turishlari, qanday muhim hissa qo‘shilishlari va hokazo haqida ma’lumot olishga yordam beradi [4].

Maqolada ko‘rsatilgan tahlil va metodlar yordamida, mualliflar oila va mahalla hamkorligining talabalarning mustaqil hayotga tayyorlashida katta ahamiyat kasb etishini tahlil qilishlari mumkin. Shu bilan birga, mualliflar talabalarning oila va

mahalla bilan hamkorlikda qatnashishlarini oshirish uchun qanday murakkabliklarni o‘z ichiga olganini aniqlayishlari mumkin. Bunda, talabalarning o‘zlashtirishi va kasbiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishga yordam beradigan tahlil va metodlar muhim ahamiyatga ega [5].

Bundan tashqari, maqolada ko‘rsatilgan tahlil va metodlar, boshqa sohalardagi tadqiqotlar va o‘rganishlar uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, bu maqola oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlash mexanizmlari haqida ilmiy fikrlar va ko‘rsatmalar taqdim etganligi uchun o‘qituvchilar va talabalar uchun foydali bo‘ladi.

Muhokama. 1. Sizning fikringizcha, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi qanday muhim ahamiyatga ega?

2. Oila va mahalla hamkorligi talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

3. Oila va mahalla hamkorligi ta’lim muassasalarida qanday amalga oshiriladi?

4. Talabalarning oila va mahalla bilan aloqasi qanday ta’minlanishi kerak?

5.Oila va mahalla hamkorligi talabalarni o‘zlashtirishda qanday rol o‘ynaydi?

6. Oila va mahalla hamkorligi talabalarning milliy va jamiyatlik qadriyatlarni tushunishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

7. Talabalarning oila va mahalla bilan hamkorlikda qanday qatnashishlari kerak?

8. Talabalarning oila va mahalla bilan aloqasini oshirish uchun qanday usullar mavjud?

9. Sizning fikringizcha, talabalarning oila va mahalla bilan aloqasi o‘zaro qanday bog'liq?

10. Oila va mahalla hamkorligi talabalarni shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishga yordam beruvchi eng yaxshi usullar qanday?

Muhokama jarayonida talabalar va o‘qituvchilar maqolada ko‘rsatilgan tahlil va metodlarga alohida e'tibor qaratib, ularning o‘z fikrlarini, tajribalarini va o‘rganishlarini keng qamrab olib, oila va mahalla hamkorligi talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda ahamiyatini muzakara qilishlari kerak. Bu muhokama jarayonida, talabalar va o‘qituvchilar talabalarning oila va mahalla bilan aloqalarini oshirish uchun qanday usullardan foydalanishlari kerakligi haqida fikrlashlari kerak. Misol uchun, talabalarga mahalalarda ijtimoiy faoliyatlar olib borish, mahalliy ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ishtirok etish, oila va mahalladagi muhim tadbirlarga qatnashish o‘rganish, shuningdek, oila va mahalla hamkorligi talabalarning o‘zlashtirishiga qanday ta’sir ko‘rsatishiga yordam beruvchi darslar tashkil etish va hokazo.

Muhokama jarayonida talabalar va o‘qituvchilar, oila va mahalla hamkorligi talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashga qanday ta’sir ko‘rsatishga yordam beruvchi eng yaxshi usullar haqida fikr almashishlari va ularning fikrlarini almashishlari kerak. Bunda, talabalarning oila va mahalla bilan aloqalari o‘zaro bog'liq bo‘lgan milliy va jamiyatlik qadriyatlarni tushunishlariga yordam beruvchi

usullar haqida ham fikr almashish kerak. Muhokama jarayonida o‘qituvchilar talabalarning oila va mahalla hamkorligi bilan aloqa va do‘stlari bilan muloqot qilish muhimligini ta’kidlashlari va talabalarni bu yo‘nalishda yuksak saviyali tayyorlash uchun yo‘l harakatlari olib borishlari ham muhimdir [6].

Muhokama jarayonida talabalar va o‘qituvchilar oila va mahalla hamkorligi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishga yordam beruvchi eng yaxshi usullar haqida fikrlashlari va ularning o‘z tajribalaridan ham foydalanishlari kerak. Bu muhokama jarayonida, talabalar va o‘qituvchilar o‘z fikrlarini, tajribalarini va o‘rganishlarini boshqa o‘quvchilar bilan ham almashishlari va oila va mahalla hamkorligi talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda yuqori saviyaga ega bo‘lish uchun bir-biriga qo‘ng'iroq qilishlari kerak.

Muhokama jarayonida talabalar va o‘qituvchilar, oila va mahalla hamkorligi talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda o‘z vazifalarini qanday bajarishlari kerakligi haqida fikrlashlari kerak. Bu vazifalar o‘quvchilarni oila va mahalladagi tadbirlarga qatnashishga, ijtimoiy faoliyatlar olib borishga, mahalliy ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ishtirok etishga, oila va mahalladagi xavfsizlik va barqarorlarini o‘rganishga, shuningdek, oila va mahalla bilan aloqalarni oshirishga yordam berishni o‘z ichiga oladi. Muhokama jarayonida talabalar va o‘qituvchilar, oila va mahalla hamkorligi talabalarning o‘zlashtirishiga qanday ta’sir ko‘rsatishga yordam beruvchi eng yaxshi usullar haqida fikrlashlari va ularni amalga oshirishlari kerak [7].

Shunday qilib, bu maqolada ko‘rsatilgan tahlil va metodlarning yordamida oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlash mexanizmlari haqida muzakara va fikr almashishlar olib borish mumkin. Bu jarayon talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlik, o‘quv jarayonlari va oila va mahalla bilan aloqa o‘rnatishda eng yaxshi natijalarni beradi.

Bu maqola Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlash mexanizmlari haqida tahlil va metodlar ko‘rsatadi. Bu maqola natijalar bo‘limida esa, maqolada ko‘rsatilgan tahlil va metodlar yordamida oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlash mexanizmlari yuzaga kelgan natijalarni ko‘rsatadi [8].

Natijalar. 1. Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu hamkorlik talabalarning o‘zlashtirishiga qanday ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi.

2. Mahalla va oila hamkorligi talabalarni ijtimoiy, madaniy va taraqqiyotga olib keluvchi faoliyatlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu tadbirlar talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

3. Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla bilan aloqa o‘rnatishning eng yaxshi usullari, mahalliy ijtimoiy tashkilotlar bilan ishtirok etish, mahalladagi tadbirlarga qatnashish, ijtimoiy faoliyatlar va mahalliy xizmat ko‘rsatishlarini o‘rganish va boshqalar kabi ko‘plab usullar mavjud.

4. Oila va mahalla hamkorligi talabalarning milliy, jamiyatlik qadriyatlarni tushunishiga yordam beradi va ularni o‘zlashtirishiga yordam beruvchi darslar va mashg'ulotlar tashkil etish muhimdir.

5. Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi talabalarning o‘zlariningoila va mahallalariga o‘zaro aloqalarini oshirish, bir-birini tushunish va qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu aloqalar talabalarning o‘zlashtirishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

6. Talabalarning oila va mahallalar bilan aloqasi o‘zaro foydali bo‘lib, talabalarning o‘zlashtirishiga, o‘ziga ishonch va o‘z sayohatlarini o‘rganishiga, oila va mahalladagi muhim tadbirlarga qatnashishga yordam beradi.

7. Oila va mahalla hamkorligi talabalarning o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatishning eng yaxshi usullari, talabalarni mahalliy ijtimoiy tashkilotlar bilan bog'liq qilish, oila va mahalladagi xavfsizlik va barqarorlik haqida o‘rganish, shuningdek, oila va mahalladagi xizmat ko‘rsatishlaridan foydalanish ham muhimdir.

8. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi talabalarning o‘zlashtirishiga yordam beruvchi usullar va metodlar tashkil etilishi kerakligi haqida natijalarga kelib chiqish mumkin. Bu usullar talabalarning oila va mahallada ijtimoiy tashkilotlar bilan ishtirok etish, mahalliy tadbirlarga qatnashish, mahalliy xizmat ko‘rsatishlardan foydalanish, shuningdek, oila va mahalladagi xavfsizlik va barqarorlik haqida o‘rganish, talabalarni mahalliy ijtimoiy tashkilotlar bilan bog'liq qilish kabi ko‘plab usullarga asoslangan bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlash mexanizmlari ko‘rsatilgan tahlil va metodlar yordamida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga olib boradi. Bu natijalar talabalarning o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam berish, milliy va jamiyatlik qadriyatlarni tushunishiga yordam berish, o‘zaro aloqalarni oshirish, mahalliy ijtimoiy tashkilotlar bilan ishtirok etish, mahalliy xizmat ko‘rsatishlardan foydalanish, shuningdek, oila va mahalladagi xavfsizlik va barqarorlik haqida o‘rganish kabi ko‘plab yo‘nalishlarda talabalarni o‘zlashtirishiga yordam berishni ko‘rsatadi [9].

Natijalar jarayonida ko‘rsatilgan tahlil va metodlar yordamida oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlash mexanizmlarining talabalarni o‘zlashtirishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy usullarini anik ko‘rsatadi va bu usullar talabalarning ijtimoiy taraqqiyoti, kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, o‘zaro aloqalarni oshirish, milliy va jamiyatlik qadriyatlarni o‘rganish, mahalliy ijtimoiy tashkilotlar bilan ishtirok etish, mahalliy xizmat ko‘rsatishlardan foydalanish, oila va mahalladagi xavfsizlik va barqarorlik haqida o‘rganish kabi yo‘nalishlarda talabalarni o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bu usullar talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatishga yordam berishadi va talabalarning o‘zini rivojlantirishiga ham yordam beradi [10].

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlash mexanizmlari maqolasida, talabalarni o‘zlashtirish va rivojlantirishda oila va mahalla bilan hamkorlikni ta’minlashning muhimligi ko‘rsatildi. Maqolada talabalarning o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatishga yordam beruvchi bir nechta usullar ko‘rsatildi, masalan, talabalarni mahalliy ijtimoiy tashkilotlar bilan bog'liq qilish, oila va mahalladagi xavfsizlik va barqarorlik haqida o‘rganish, shuningdek, oila va mahalladagi xizmat ko‘rsatishlardan foydalanish kabi ko‘plab usullar ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, maqolada talabalarning milliy va jamiyatlik qadriyatlarni tushunishiga yordam berish, o‘zaro aloqalarni oshirish, mahalliy tadbirlarga qatnashish va ijtimoiy faoliyatlar kabi usullar ham ko‘rsatildi. Bu usullar talabalarni o‘zlashtirish va rivojlantirishda oila va mahalla hamkorligi uzviyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarning ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ham yordam beradi.

